

“Open bank” aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi o‘tkazilishi to‘g‘risida E’LON

Hurmatli aksiyadorlar!

“Open bank” aksiyadorlik jamiyati Kuzatuv kengashining 2026-yil 31-martdagi qaroriga asosan bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi 2026-yil 23-aprel kuni Toshkent shahri Yunusobod tumani, Shahrissabz ko‘chasi, 2-uy manzilida joylashgan binoda o‘tkaziladi.

Yig‘ilish soat 11:00 da boshlanadi. Aksiyadorlarni ro‘yxatga olish soat 10:30 dan boshlanadi va soat 10:55 da tugatiladi. Umumiy yig‘ilish o‘tkazilishi haqida xabar qilish uchun bank aksiyadorlari reyestri 2026-yil 31-mart holatiga va aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishida qatnashish uchun 2026-yil 17-aprel holatiga tuziladi.

Kun tartibi:

1. Bankning sanoq komissiyasi a‘zolari soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.
2. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi reglamentini tasdiqlash.
3. Bank Kuzatuv kengashi a‘zosining vakolatini muddatidan oldin tugatish hamda Kuzatuv kengashi tarkibidan chiqarish.
4. Bank Kuzatuv kengashi a‘zosini saylash.
5. Bankning Ustaviga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish.
6. Bankning yangi faoliyatini yo‘lga qo‘yish va ushbu faoliyat yuzasidan yangi kollegial organi tashkil etish.
7. Bankning tashkil etiladigan yangi kollegial organi a‘zolarini saylash.
8. Bankning tashkil etiladigan yangi kollegial organi nizomini tasdiqlash.
9. Bankning yangi tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishida qatnashish va ovoz berish uchun, aksiyadorlarda shaxsni tasdiqlovchi hujjat, aksiyadorlar vakillarida esa qonunchilikda belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnoma bo‘lishi lozim.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishida ko‘rib chiqiladigan masalalar bo‘yicha axborotlar (materiallar) bilan Toshkent shahri Yunusobod tumani, Shahrissabz ko‘chasi, 2-uy manzilida ushbu e‘lon berilgan kundan boshlab yig‘ilish o‘tkaziladigan kunga qadar soat 10:00 dan 17:00 gacha tanishish mumkin.

Elektron pochta manzili: office@openbank.uz

***Hurmat bilan,
“Open bank” aksiyadorlik jamiyati Kuzatuv kengashi***